

III SHO‘BA: ARXIV MANBALARI ORQALI SIVILIZATSIYA TARIXINI TIKLASH VA TARIXIY HUJJATLARNI ILMIY TAHLIL QILISH

“XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MAHALLIY SUD TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLARNING OQIBATLARI”

Karimova Go‘zal Rustamjon qizi

Qo‘qon DU 70220303 – ijtimoiy fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix)

mutaxassisligining 2-bosqich magistranti

gozalphonrustamovna@gmail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda mahalliy sud tizimiga Chor Rossiyasi tomonidan bir qancha o‘zgarishlar kiritilishi sababli yuz bergan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar o‘rganilib, uning oqibatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qozi, qozilalon, biy, sud tizimi, fuqarolik sudi, jinoyat sudi, tijorat sudi, harbiy gubernator, an‘anaviy sud, xalq sudyasi, general-gubernator.

Annotation.

In this article, the socio-political situations that occurred in Turkestan at the end of the 19th - the beginning of the 20th century due to the introduction of a number of changes to the local judicial system by Tsarist Russia were studied and its consequences were analyzed.

Key words: qazi, qazilan, biy, judicial system, civil court, criminal court, commercial court, military governor, traditional court, people's judge, governor general.

Vatanimizning mustaqillik yillarida ajdodlarimiz qoldirgan boy, qadimiy madaniy meros, ma‘naviy qadriyatlarni, urf-odatlarni, o‘z haqqoniy tariximizni o‘rganishga keng imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda. O‘zbek xalqining jahon ommasi qarshisida yana shonli g‘urur bilan boshini baland qilib mag‘rur turishi uchun Vatanimizning tarixini tiklash va uni holis yetkazib berish hozirgi kunning

dolzarb masalalaridan biridir. Hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”[1]. Shunday ekan biz yosh tarixchilar ham ushbu vazifani mas’uliyat bilan bajarishimiz talab etiladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Chor Rossiyasi tomonidan Turkiston hududida turli xil siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, sud-huquq tizimi sohasiga kiritilgan o‘zgarishlar va uning oqibatlari mahalliy aholi turmush tarziga, ularning azaliy urf-odatlariga butunlay o‘zgacha yondashuv orqali qaraldiki, ushbu yangicha huquqiy tartiblar bir qancha tub burilishlarga olib keldi. Chor hukumatining sud tizimiga kiritgan o‘zgarishlari eng avvalo mahalliy aholining huquqiy ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Biz bilamizki, huquqiy ong – bu odamlarning huquq va qonunlarga nisbatan histuyg‘usi, bilimi, e’tiqodi va xulq-atvoridir. U uch tarkibiy qismdan iborat:

1. Bilim (qonunlar, huquqlar va majburiyatlar haqidagi ma’lumot);
2. Qadriyat va munosabat (qonuniylik va adolatga ishonch);
3. Amaliy xulq (qonuniy muammolarni hal qilishdagi odatlari – masalan sudga murojaat qilish yoki muammoni oilaviy hal qilish).

Sud-huquq tizimida nimalar o‘zgardi? Birinchidan, sud tizimidagi an’anaviy darajalanish tizimi bekor qilindi. Ikkinchidan, shu paytgacha jamiyat hayotida muhim rol o‘ynagan qozikalon lavozimi bekor qilindi. Uchinchidan, o‘lkadagi barcha qozilar huquqi tenglashtirildi. To‘rtinchidan, qozilar uch yil muddatga saylanadigan bo‘ldi. Shuningdek, da’vogarga avvalgidek, o‘z hududidagi qoziga emas, balki o‘zi ishonch bildirgan qoziga murojaat qilish huquqi berildi.

Yangi tartiblarga ko‘ra, yangicha sud organlari – imperial sudlar ham joriy etildi. Mahalliy aholi vakillari tomonidan rus fuqarolari manfaatlariga aloqador biror bir masalalar yuzaga kelganda, aynan ular tomonidan sud

qilinadigan bo‘ldi. Jiddiyroq vaziyatlarda, ya‘ni “o‘lim jazosi va umrbod qamoq jazosi”ga aloqador fuqarolik va jinoiy sud hukmlarini chiqarish esa, Turkiston viloyati harbiy gubernatori vakolatiga berildi. Savdo sohasidagi bahsli masalalarni ko‘rish rus va mahalliy savdogarlar vakillaridan tashkil topgan “tijorat sudlari” hukmiga havola etilishi belgilandi.

Harbiy gubernatorga an‘anaviy sudlarning hukmlarini, rus harbiy-jinoyat sudlarining mos keluvchi muqobil hukmlari bilan almashtirish huquqi berildi. Bularning bari qozilar vakolati ma‘lum darajada cheklaganligini yaqqol isbotlari edi. Albatta, asrlar davomida an‘anaviy sud tizimiga ko‘nikkan mahalliy aholi vakillari uchun bu yangi tartiblarga majburan amal qilish oson bo‘lmadi. Garchi diniy ulamolar sud jarayonlariga o‘zgartirishlar kiritish muhimligini ta’kidlasalarda, amalda eski tartiblarning ya‘ni an‘anaviy sud tizimining tiklanishini talab qila boshladilar.

O‘sha davr matbuotiga oid manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, Rossiya savdo-sanoat doiralari manfaatlarini himoya qiluvchi “Биржевые ведомости” (“Birja xabarlari”) gazetasida mustamlaka hukumatining sud tizimini isloh qilish harakatlari tanqid ostida qoladi. Undagi ma’lumotlarga ko‘ra, rus hukumati musulmon ruhoniylarini o‘ziga qarshi qo‘yayotganligi, mahalliy aholining an‘analari va qonunlariga aralashuv katta norozilik keltirib chiqarganligi alohida qayd etilgan edi.

Qozilarning saylanish nizimini yaratilishi ham bir qancha muammolarni keltirib chiqardi. Xonliklar davrida qozilik lavozimiga tayinlash jarayonida, eng layoqatli nomzod sinchkovlik bilan tanlab olingan bo‘lib, undan shariat va odat qonunlarini yaxshi bilish darajasini aniqlash uchun imtihon olingan, ya‘ni nomzodlarning chuqur bilimga ega ekanligini hisobga olish mezonini mavjud bo‘lgan bo‘lgan. Ammo mustamlaka tuzum joriy qilgan tartiblarga ko‘ra, boshlang‘ich saylanish huquqi va qozilik lavozimiga nomzodlarning ilmiy darajasiga hech qanday talab qo‘yilmagan. Bunday siyosat

natijasida “xalq sudyalari” ya‘ni, qozilar lavozimiga ko‘pincha musulmon huquqidan yetarli bilimga ega bo‘lmagan, turli darajadagi suiste‘mollarga va noqonuniyliklarga yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan shaxslar, Chor Rossiyasi va uning siyosatini qo‘llab-quvvatlaydiganlar tasdiqlanganlar. Ko‘p hollarda qozilik kursisi pulga sotib olinganligi mahalliy tilda chop etilgan davriy nashrlarda qattiq tanqid qilingan. Qozilarni tayinlashda ularning bilimi hisobga olinmay, saylov natijalarini tasdiqlovchi mustamlaka hukumatining nomzodlarga qanchalik xayrixohligi, ularning naqadar ishonchga sazovorligi bosh mezon bo‘lib xizmat qilgan.

Hukumat doiralarining bunday siyosati natijasida aksar hollarda xalq sudyaligiga shariat qonunlari u yoqda tursin, hatto oddiy huquqni ham yaxshi bilmaydigan odamlar saylanar, buning oqibatida mansabni suiiste‘mol qilish va qonunni buzish hollari kelib chiqardi. Ayniqsa, jinoyat turlari bo‘yicha ham jazo choralarining aniq chegarasi mavjud emasligi, sudyalarga u yoki bu aybdor uchun jazo chorasini tanlashda keng imkoniyat berardi. Xalq sudyalarining qurultoylari ko‘pincha bu kasbdagilarning nohaq qarorlarini tasdiqlardi va bu bilan o‘z hukmlarining qat‘iyligini ta‘minlab, xato qarorlar chiqargan sudyalarning mas‘uliyatsizligini xaspo‘shlardi[2].

Imperiya hukumati saylov sohasiga o‘zgarishlar kiritib, mahalliy boshqaruv tizimiga nisbatan o‘z ta‘sirini kuchaytirishga harakat qildi. Natijada amaliyotga kiritilgan me‘yoriy-huquqiy tartiblar ro‘kach qilinib, go‘yoki qonuniy asosga ega deb qaraldi va ular bemalol saylov jarayonlariga aralashib, nazoratni kuchaytirishga erishdi[3].

Viloyat boshqarmalarida tashkil qilingan sud bo‘limlari viloyat harbiy gubernatori nazoratida amalga oshirilgan. Sud ishlari bo‘yicha hech qanday bilim va amaliy tajribaga ega bo‘lmagan harbiy gubernatorning bunday vakolatga ega bo‘lishi sud ishiga katta zarar yetkazgan, juda ko‘p

tushunmovchilik va chalkashliklarga olib kelgan. Bu anglashilmovchiliklarni hal etish uchun murojaatlar qabul qiluvchi yuqori instansiya – Turkiston general gubernatori bo‘lib, u ham yetarli bilim va amaliy tajribaga ega bo‘lmagan holda juda ko‘p masalalarni o‘z holicha hal etgan. U xatto sud tizimidagi amaldorlarning huquq va burchlari haqidagi qoidalarni ham o‘zi istagancha o‘zgartirganligi taftish jarayonlarida aniqlangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sud tizimidagi o‘zgarishlar mahalliy aholining huquqiy ongida adolat, qonun ustuvorligi va huquqiy mas’uliyat tushunchalarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Sud amaliyotida yuzaga kelgan tengsizliklar, byurokratik to‘siqlar va korrupsion holatlar huquqiy ongning to‘laqonli rivojlanishiga salbiy ta’sir qilgan bo‘lsa-da, huquqiy nizolarni sud orqali hal etish amaliyotining kengayishi aholining huquqiy faolligini oshirishga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan
2. R.E.Xoliqova. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017. 46-bet
3. Каримов К.С. Туркистонда халк судья(кози)лари фаолияти ва ҳукукий меъёрлар легализацияси тарихидан (XIX аср шчири – XX аср бошлари).